Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317069

3. https://www.google.com/search?q=moliyaviy+hisoboylar&oq=moliya&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqBggAEEUYOzIGCAAQRRg7MgYIARBFGDsyDggCEEUYJxg7GIAEGIoFMgYIAxBFGDsyDAgEECMYJxiABBiKBTIGCAUQRRg9MgYIBhBFGD0yBggHEEUYPNIBBzgzOWowajeoAgCwAgA&sourceid=chrome&ie=UTF-8

AKSIZ SOLIG‘INING MOHIYATI VA UNING OBYEKTI

To’raboyev Kambarali Kodirovich
TDIU, Mutaxassislik kafedrasi assistenti
Xolmirzayev Doniyorjon
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon Fakulteti SST ta’lim yonalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aksiz solig’i haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmagan holdagi (aksiz solig'i summasini o‘z ichiga olgan) qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.*

Kalit so’zlar:*Aksiz,tovar,iste’mol,soliq ko’deksi.tadqiqot,obyekt.*

Aksiz solig'i bilvosita soliq turi bo'lib, tovar yoki xizmat narxiga ustama ko'rinishda undiriladi va pirovardida istc’molchi tomonidan to‘lanadi. Aksizlar davlatning soliqqa doir umumiy siyosati tarkibiy qismi hisoblanadi hamda budjct daromadini ko'paytirish, ba’zi tovarlar istc’mol qilinishi (tamaki, spirtli ichimliklar), ishlab chiqarish ayrim turlarining ko'paytirish tabiatni muhofaza qilishga salbiy ta ’siri oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy xarajatlar o‘mini qoplashda, shuningdek, avtomobil yo'llari qurish va saqlash xarajatlarini, boshqa xarajatlami, himoyalash manbayi sifatida, vatanimizdagi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda va hokazolar uchun qo'llaniladi. Aksiz hajmi qoida tariqasida, tovar qiymati bilan ham, uni ishlab chiqarish uchun qilingan mehnat sarfi bilan ham bog‘liq emas, balki davlatning soliq siyosatiga qarab belgilanadi. Ba’zi mamlakatlarda iste’mol solig'i, ya’ni chakana savdodagi har bir xarid uchun soliq, xizmat ko'rsatish sohasida oborot solig'i, tomoshaxonalardan undiriladigan soliq va boshqalar tobora ko'proq rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar, tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq qabul qilingan, lekin respublikamizda birinchi marotaba 1992-yildan boshlab joriy etilgan. «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida» aksiz solig'ining yangi umumiy qoidalari, aksiz stavkalari va to'lash tartibini ko'rsatib o'tilgan. Aksiz solig'i tovar qiymatining bilvosita soliq ko'rinishida budjetga to'lanadigan bir qismi bo'lib, u qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan bazada hisobga olinadi. O'zlari ishlab chiqargan va aksiz solig'i solinadigan tovarlami

Published: 28.03.2024
Cite this article: To’raboyev Kambarali Kodirovich, Xolmirzayev Doniyorjon (2024). Aksiz solig‘ining mohiyati va uning obyekti. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317069
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

sotuvchi, mulkchilikning har qanday shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar aksiz solig'i to'lovchilar hisoblanadi. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga aksiz solig'i solinmaydi, O'zbekiston Respublikasiga tovarlar eksportiga nisbatan soliq solish rejimini qo'llaydigan davlatlarga tovarlar realizatsiya qilinadigan hollar bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasida aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday tovarlami import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar budjetga aksiz solig'i to'laydilar.

0 ‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksiz to ‘lanadigan tovarlar uchun ulaming qo'shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmagan holdagi (aksiz solig'i summasini o‘z ichiga olgan) qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Agar tovar ishlab chiqaruvchi aksiz toianadigan tovami naturial haq yoki sovg‘a sifatida bersa, soliq to’lovchidan tovami topshirish paytida tarkib topgan, lekin amal qilingan xarajatlardan kam bo'lmagan narxlar darajasidan kelib chiqib hisoblangan qiymat soliq solish obyekti hisoblanadi. Ushbu qoidalar, tovarlar o‘z xomashyosidan yoki berilgan xomashyodan ishlab chiqarilgandan qat’i nazar qo'llaniladi. Berilgan xomashyodan ishlab chiqarilgan tovarlar bo‘yicha aksiz solig'i va uni buyurtmachiga berish paytida ushbu qoidalarga muvofiq belgilangan narxda hisoblab chiqarilishi lozim. Tadqiqot obyektidan kelib chiqib, asosiy egri soliqlardan biri bo'lgan aksiz solig'ining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi xususida to'xtalamiz. Dastlab egri soliqlar ayrim tovar turlari (tuz, tamaki, aroq mahsulotlari, gugurt, shakar va boshqa keng iste'mol mollari)ga aynan aksiz solig'i ko'rinishida namoyon bo'lgan. Baqt o ‘tishi bilan aksiz osti tovarlari ro‘yxati kengayib borgan. O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, soliqqa tortishning aksizli shakli keng xalq ommasi iste’molidagi ommaviy tovarlami soliqqa tortish jarayonidagina samara berishi mumkin bo'lgan.

Qadimda aksizlami boshqa nomlar bilan boj, to ‘lov, yig‘im yoki sodda qilib soliq deb atashganlar. Aksizlaming o‘sha davrda amal qilgan soliqqa tortish mexanizmi to‘g‘risida taxminiy ma’lumotlar mavjudligi uning ilk paydo bo'lgan davrini aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, xalq tribunlari Tiberiy va Gay Grakxov (er. av. 162-133 va 153-121-yy.) davrlarida Rim g'aznasiga qo'llami ozod etishdan, shu bilan birga o'z shaxsiy iste’moli uchun zarur bulmagan tovarlami dengiz orqali Rimga olib kelinishdan yig'imlar tushib turgan. Qadimgi Misrda XII—XIII chi sulolalar davrida (er. av. ikkinchi ming yillik) pivoga soliq solingan. Albatta, bu to‘lovlar hozirgi talqindagi aksizlar boMmasligi mumkin, lekin ulami aksizlaming dastlabki namunalari sifatida e’tiborga olish lozimdir. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Angliyada Kromvel davrida respublikaning yigirma yil amal qilishi davomida aksizlaming ikki yuzga yaqin turi joriy etilgan. Bunda har xil turdagi obyektlar soliqqa tortilgan, masalan, poxol kukuni yoki yog‘ uchun quti idishlar shular jumlasidandir. XXI asrda Gollandiyada egri soliq turlari shunchalik ko‘p ediki, tarixchi de-Bitta so'zlariga qaraganda, mehmonxonada tortiq qilingan baliq bo'lagiga 34 xil aksiz to‘g‘ri kelgan. Demak, aksizlar, bojlami hisobga olmaganda soliqqa

tortishning eng qadimgi shaklidir. «Aksiz» franso'zcha-accise, lotincha-accidere so'zlaridan olingan bo‘- ladi, tarjima qilinganda «kesib olish» ma’nosini anglatadi.

O'zbekiston Pespublikasi soliq qonunchiligida aksiz solig'iga quyidagicha i/.oh berilgan: «aksiz solig'i sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga toriladigan bazada hisobga olinadigan, egri soliq sifatida budjetga o'tkazilaigan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir. Bizning fikrimizcha, aksiz solig'i sof daromadning emas, balki yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga yo'naltirish shaklidir. Egri soliq sifatida aksiz solig'ining qo'shilgan qiymat solig'idan farqlanuvchi xususiyatli jihatlarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir, ya’ni: - aksiz solig'ida cheklangan turdagi aksiz osti mahsulotlarini sotish oboroti soliqqa tortiladigan obyekt bo'ladi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'idagi soliqqa tortish obyekti bo'lgan ish va xizmatlar aksiz solig'iga tortilmaydi; - agar qo'shilgan qiymat solig'i tovar ishlab chiqarish va ayirboshashning barcha bosqichlarida vujudga kelsa va undirilsa, aksizlar esa faqat ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi. Ushbu qoidadan O'zbekiston Resublikasi hududiga olib kelinayotgan aksiz osti mahsulotlari va tovarlari istisnodir. Madomiki, ushbu holatda aksiz solig'ini to'lovchilar bo'ladi, aksiz osti mahsulotlarini sotib oluvchi va qayta sotuvchi tashkilotlar hisoblanadi. Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqdir. Uning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi. Aksiz solig'ining iqtisodiy mofiiyati budjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'lami jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'olchilaming to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aksiz solig'i obyektlari (aksiz osti tovarlari)ni qiskartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to'lov qobiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, subyektlar aksiz solig'i iste'molchilari sifatida o'zaga kelishi tabiiydir. Ammo aksiz solig'i yengiliklari tovarlami xarid qilish uchun olinaigan kredit resurslarini qisqartirilishiga, bu esa o'z vaqtida xarajatlarning pasayishiga olib keladi. Xarajatlarning pasayishi esa daromad (foyda)ni oshirish omillaridan biridir. Aksiz solig'ini mohiyatini ochishda u bajaradigan vazifalami bilish muhimdir. Shu jihatdan uning quyidagi vazifalarini alohida ta’kidlab o'tmoqchimiz: birinchidan, mamlakat budjetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kcchirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlami tez va oson yigish imkoniyatlari yuzaga keladi. Fransuz iqtisodchisi F.Demezon ta’biri bilan aytganda «aksizning o'zi barcha boshqa soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir»

Ushbu maqolada aksiz solig’i haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi,shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksiz to ‘lanadigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmagan holdagi (aksiz solig'i

summasini o‘z ichiga olgan) qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

Internet saytlari:

1. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi)
2. www.treasury.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi);
3. www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali);
4. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
5. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
6. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi);

DAVLAT MAQSADLI JAMG`ARMALARI VA ULARNING MOHIYATI

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
TDIU Andijon fakulteti, “Mutaxasislik fanlari” kafedrasi o’qituvchisi
Foziljonov Azimiddin Asildin o’g’li
TDIU Andijon fakulteti “Bank ishi va audit” yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Davlatning maqsadli jamg`armalari ahamiyati vazifalari tashkiliy-huquqiy asoslar haqida yoritib berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Byudjet, jamg`armalar,*

Mamlakat miqyosida turli shakldagi moliyaviy resurslarning yetarlilik darajasi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy murakkabliklar va moliyaviy-iqtisodiy tanglik holatlaridan halos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda har qanday davlat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – shubhasiz, davlat maqsadli jamg`armalarining faoliyatidan unumli foydalanish hisoblanadi. Umuman olganda, davlat maqsadli jamg’armalari - davlatning alohida xarajatlarini moliyalashtirish uchun mamlakatning byudjet tizimi tarkibiy qismi sifatida jamlanadigan mablag`lar bo'lib, ularning maqsadli yo`naltirilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash maqsadida amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan jamg`armalardir. Bundan tashqari, iqtisodiy adabiyotlarda, byudjetdan tashqari jamg’larmalarda bir qator o’ziga xos ta’riflar berib o`tilgan. Bu kabi jamg’armalarning iqtisodiy mohiyatini to’laroq ochib berishda taniqli iqtisodchi olimlar o`zlarining fikrlarini bildirib o`tishgan.

Byudjetdan tashqari jamg`armalar - bu ba'zan ijtimoiy ehtiyojlarni moliya bilan ta'minlash uchun davlat tomonidan jalb qilinadigan va operativ mustaqillik asosida kompleks ravishda sarflanadigan moliya resurslarini qayta taqsimlash va foydalanish shaklidir. G`arb mamlakatlarida bundan jamg`armalar soni 30 tadan 80 tagacha yetishi mumkin. Bunda byudjetdan tashqari jamg`armalarning hukumat ta’siridan holiligi va moliyaviy jihatdan mustaqilligiga urg`u berib o’tilgan. Biroq, bu omil